

**SHEVAGA XOS SO'ZLARING O'QITILISH AHAMIYATI VA
USULLARI**

Saidahmadova Dildora Saidahmad qizi

ToshDO 'TAUning 3-kurs talabasi

+998 97 128 25 00

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek tili ta'limida shevaga xos leksik birliliklarning o'qitilishi bilan bog'liq nazariy va amaliy masalalar yoritilgan. Sheva leksikasining madaniy-ma'naviy ahamiyati, o'quvchilar til boyligini shakllantirishdagi o'rni, shuningdek, uni samarali o'rgatish metodlari tahlil qilingan. Maqolada zamonaviy ta'lim yondashuvlari asosida taklif etilgan usullar va tavsiyalar ilgari surilgan.

Abstract: This article discusses theoretical and practical issues related to the teaching of dialect-specific lexical units in Uzbek language education. The cultural and spiritual significance of dialect lexicon, its role in the formation of students' linguistic wealth, as well as methods for its effective teaching are analyzed. The article puts forward proposed methods and recommendations based on modern educational approaches.

Kalit so'zlar: til, metod, "Do 'stingni top", sheva, adabiy til, "Avtofokus".

Keywords: language, method, "Find a Friend", dialect, literary language, "Autofocus".

Kirish

Har bir tabiiy til o'z strukturasi, mintaqaviy ko'rinishlari va leksik boyligi orqali nafaqat aloqa vositasi, balki xalqning ijtimoiy-madaniy tajribasini mujassam etuvchi tizimli hodisa sifatida qaraladi. Tilshunoslik fanida tilning mintaqaviy variantlari – shevalar alohida e'tibor bilan o'rganiladi, chunki ular tilning ichki

taraqqiyoti, dialektologik qatlamlari va tarixiy jarayonlar natijasi sifatida shakllanadi. Shevalardagi leksik birliklar esa muayyan hududga oid voqeliklarning til ifodasi bo'lib, milliy tafakkur va xalqona dunyoqarashning bevosita mahsuli hisoblanadi.

Shevalar har bir milliy tilning asosini tashkil etadi hamda u milliy-ma'naviy qadriyatimiz hisoblanadi. Aslida ham ona tili deganda sheva tushunilishi haqiqatga yaqindir. Shuning uchun ham uni asrab-avaylash, qadrlash zarur. Bu haqda birinchi prezidentimiz I. A. Karimovning: "Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo, ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi. Ona tili - bu millatning ruhidir¹", - degan so'zlarini eslash o'rnlidir. Demak, shevalar to'g'risidagi fanni o'rganish talabalarini milliy g'oya ruhida tarbiyalash imkoniyatini tug'diradi. To'g'ri, har bir madaniyatli shaxs rasmiy doiralarda o'zbek adabiy tilida muomala qilishi shart, lekin bu o'z shevasini unutishi kerak degan so'z emas².

O'zbek tilining shevalarida saqlanib qolgan ko'plab arxaik so'zlar, mintaqaviy leksik birliklar ham tarixiy til qatlamlarini o'rganishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Shu bois, umumta'lim muassasalarida o'quvchilarga shevaga xos so'zlarning mohiyatini ochib berish, ularni adabiy til bilan taqqoslash orqali ta'limiy va tarbiyaviy maqsadlar amalga oshiriladi.

Darslikning eng qimmatli o'rinalardan yana biri unda amaliy mashg'ulotlar uchun shevalardan yozib olingan matnlarning berilishidir. Darslikdagi matnlarning asosini xalq og'zaki ijodi materiallari tashkil etadi. Ular shevalarning eng muhim xususiyatlarini aks ettira oladi, lekin unda har qanday holatda ham adabiy til an'analari ishtirok etadiki, bu o'quv jarayonida talabalarimizning ba'zan tanqidiy yondashishiga olib kelmoqda³.

Ko'tib turganimizdek, shevalarga bo'lgan e'tibor kata va uni darsliklarda qo'llash ham muhim ahamiyat kasb etadi. Quyida esa ana shunday shevalarni

¹ Каримов И. Ватан ва халқ мангуболади. – Тошкент: Алиишер Навоий номидаги Узбекистан Миллий кутубхонаси нашриети, 2010. — Б. 123.

² Ashirboyev Samixon. O 'ZBEK DIALEKTOLOGIYASI // darslik //T.: «NAVRO'Z» nashriyoti 2016. - 136 b.3-bet.

³ "O'zbek shevalari tadqiqotlari: amaliyot, metodologiya va yangicha yondashuv" mavzusidagi II Respublika ilmiy-nazariy konferensiyasi materiallari [Matn]: materiallar to'plami / mas'ul muharrir Sh.Sirojiddinov. – Toshkent: Donishmand ziyosi, 2022. – 216 b.

o'tish jarayonida qo'llash mumkin bo'lgan metodlardan namunalar keltiramiz:

"Avtofokus" metodi

Zerikarli darsning oldini oladi;

O'quvchilar e'tiborini darsga qaratishga yordam beradi;

Tinglovchilarda hushyorlikni oshiradi; Qanday qo'llaniladi?

Dars boshlanishi bilan o'quvchilarga qizil, oq, sariq, yashil kartochkalar tarqatib chiqasiz. (Kartochkalar soni bir xil bo'lsa yaxshi.)

Domigidek darsingizni boshlayverasiz va dars davomida kutilmaganda qaysidir rangni aytasiz.

Masalan, yashil. Yashil rangli kartochkasi bor o'quvchilar o'rinalidan turishadi va ularga mavzuga oid shevaga xos so'zlar aytildi, adabiy tildagi muqobil variantini aytish kerakligi eslatiladi.

Savolni o'tirgan o'quvchilar berishadi!

Shunda barcha o'quvchilar ziyrakligi oshadi va bor e'tiborlari darsga, mavzuga qaratiladi. Ishtirok etgan har bir faol o'quvchini dars so'ngida rag'batlantiriladi.

"DO'STINGNI TOP" metodi

Konvertga shevaga xos so'zlar va adabiy tildagi mos variantlari yozilgan kartochkalar aralash qilib solingan bo'ladi.

Sinfda 30 ta o'quvchi bo'lsa, demak, 30 dona kartochkalar bo'ladi: 15ta shevaga xos so'zlar, 15ta javob.

Sinfdagagi har bir o'quvchi konvertdan ko'rmagan holatda kartochkalarni tortadilar.

Birinchi, savol tushgan o'quvchilar savolni o'qiysi, javobi qaysi o'quvchida bo'lsa o'sha do'sti savolga javob berishi kerak bo'ladi.

Bu metod o'quvchini fanga qiziqtirib har bir savol uchun o'zi harakat qilishga undaydi.

Moslashtiring

Bu metodda har bir dars o'tilayotgan hududda ishlatiladigan shevaga xos

so'zlardan 15tachasi ajratib olinadi va ustun shaklda joylashtiriladi. Ikkinchisi tarafida esa adabiy tildagi muqobil variant aralashtirib beriladi va bu orqali o'quvchi bir-biriga mos so'zlarni topish kerak bo'ladi.

10-sinf ona tili darsligining 98-sahifasida quyidagi mashq berilgan:

27.4- mashq. Berilgan matnlarni qiyoslab, shevaga xos so'zlar lug'atini tayyorlang. Ularning qaysi birida o'ynoqi ohang ustun?

Gunlarim o'tayotir sannan mosuvo, Osmonloni hamma buluti manda. Ustingnan ilganni na poydosi vo, Yuraking qulpini kiliti manda. (M.Abdulhakim)	Kunlarim o'tmoqda sendan uzoqda, Osmonlarning hamma buluti menda. Seni berkitganning ne foydasi bor, Yuraging qulfining kaliti menda.
Deshonnon qorosong – po'rimnon po'rim, Ichonino boqsong – dardi yoshirin. Shundo-do dastirxon atmayin sirin, Gulgan bir xolq akan shoir dagani. (B.Bekmatov)	Tashidan qarasang – porimdan porim, Ichiga boqsang gar – dardi yashirin. Shunda ham sirlarin qilmay dasturxon, Hazilkash xalq ekan shoir degani.

Bu she'r orqali o'quvchi shevaga xos so'zlarni ajrata oladi, ona tilini adabiyot bilan aloqasini o'rgana oladi. Bundan tashqari mashq shartida o'ynoqi ohang haqida ham ma'lumotlarga ega bo'ladi. Huddi shu mashqni quyidagi metod yordamida o'tsak yanada yaxshiroq bo'lardi:

Moslashtiring	
Gunlarim	Osmonlarning
Deshonnon	Seni berkitganning
Shundo-do	Tashidan
Ustingnan ilganni	Kunlarim
Osmonloni	Shunda ham

Xulosa

Shevaga xos so‘zlarning o‘qitilishi o‘zbek tilining boyliklarini saqlash va avloddan avlodga yetkazish vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Bunday so‘zlarni o‘rgatish jarayoni quyidagi xulosalarni beradi:

1. Shevaga oid leksikani o‘rganish o‘quvchilarda tilga, elga hurmat tuyg‘usini oshiradi.
2. Adabiy til va sheva o‘rtasidagi farqlarni anglash til tafakkurini kengaytiradi.
3. O‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini boyitishga xizmat qiladi.
4. Metodik yondashuvlar individual va hududiy xususiyatlarni hisobga olgan holda tanlanishi kerak.
5. Shevaga xos so‘zlar madaniy va tarixiy kontekstda tushuntirilganda, o‘rganish jarayoni samaraliroq bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Каримов И. Ватан ва халқ мангу колади. - Тошкент: Алиишер Навоий номидаги Узбекистан Миллий кутубхонаси нашриети, 2010. — Б. 123.
2. Ashirboyev Samixon. 0 ‘ZBEK DIALEKTOLOGIYASI // darslik //T.: «NAVRO‘Z» nashriyoti 2016. - 136 b.3-bet.
3. “O‘zbek shevalari tadqiqotlari: amaliyat, metodologiya va yangicha yondashuv” mavzusidagi II Respublika ilmiy-nazariy konferensiyasi materiallari [Matn]: materiallar to‘plami /– Toshkent: Donishmand ziyosi, 2022. – 216 b.
4. Ўзбек халқ шевалари луғати. –Тошкент: Фан, 1991. –407 b.